

Prezident gilamchilik loyihasini ma'qulladi



Davlatimiz rahbari Termiz shahridagi «Afghan bazar carpets» korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Ma'lumki, Surxondaryoda qo'y ko'p boqiladi. Lekin uning juni deyarli qayta ishlanmaydi. Shu bois Pillachilik va qorako'lichilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan Afg'oniston tajribasi asosida jundan gilam to'qish yo'lga qo'yilmoqda.

Prezident bu loyihani ma'qullab, afg'onistonlik ishbiarmonlar bilan hamkorlikni kengaytirish, jundor qo'y zotlarini ko'paytirish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Shavkat Mirziyoyev korxonada ishlayotgan xotin-qizlar bilan muloqot qildi.

Majmuada «Silk road tex» korxonasi ham tashkil etiladi. Unda ipakli mato, ipakli tayyor mahsulotlar, sport va yo'l sumkalari hamda ipakli gilam ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan. Yiliga 2 million dollarlikdan ziyod eksport maqsad qilingan.







Manba